




Pirmqul Qodirovning
“Ona lochin vidosi”
romani yuzasidan bibliografik
qo`llanma

**XORAZM VILOYATI XONQA TUMANI
AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI**

“Ona lochin vidosi”

Pirimqul Qodirov

**O‘ZBEKISTON XALQ
YOZUVCHISI**

Axborot-kutubxona markazi foydalanuvchilari uchun uslubiy qo‘llanma

Xonqa tumani – 2023

YŷK _____

KBK _____

Primqul Qodirov - O‘zbekiston Xalq yozuvchisi, atoqli O‘zbek yozuvchisi. [Matn] : Axborot-kutubxona markazi foydalanuvchilari uchun uslubiy qo‘llanma / Tuzuvchi: D.Qodirova, D.Olloquliyev; Muharrir D.Jumaniyozova. -

Xonqa tumani axborot-kutubxona markazi. Axborot-bibliografiya xizmati, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish xizmati, 2024. – 16 bet.



Pirimqul Qodirov “Ona lochin vidosi” romanida buyuk tadbirkor Amir Temur bobomiz hayotining so‘nggi davrlari va uning odil va ma’rifatparvar o‘g‘li Shohruh Mirzo, o‘g‘li, buyuk astronom va matematik, o‘z davrining atoqli allomasi Shohruh Mirzoning davlat idoralari faoliyatining so‘nggi davrlari. , davlat arbobi, Movaraunnahrni boshqargan Mirzo

Ulug‘bek haqida yozilgan. Asar rivojida Temurzoda nevaralarining taqdiri dono va donishmand Gavharshodbegim hayoti bilan mahorat bilan bog‘langani tahsinga sazovordir.

Amir Temurning evarasi, Temuriy shahzodalar orasida jasoratli, mard, odil va tadbirkor saltanat sohibi



bo‘lgan Sulton Husayn Boyqaro va do‘sti buyuk shoir va mutafakkir, davlat arbobi mir Alisher Navoiyning hayotlaridan keltirilgan tarixiy lavhalar bilan asar yanada boyitilgan va o‘z qiymatini oshirgan. Pirimqul Qodirov “Ona lochin vidosi” romani boshdan to oxirigacha Amir Temurning to‘ngich

farzandi Shohruh mirzoning rafiqasi, Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiydek buyuk siymolarga mehrini bergan fidoiy ona – Gavharshod begimning fojiaiy taqdiri tasvirlanadi. Ma’rifatli ona umrining oxirigacha adolat uchun jasorat bilan kurashadi. Iste’dodli yoshlarni tarix sahnasiga chiqarishga ko‘maklashadi. **Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi "** romani nimaga **"Ona lochin vidosi "** deb nomlangan, ona lochin kim? degan savolga javob topaylik. Yozuvchi ona lochin obrazini Temuriylar sulolasining onasi bo‘lmish Gavharshodbegim timsolida tasvirlaydi. Butun bir sulolaga boshchilik, onalik Gavharshodbegim zimmasiga tushadi. Nevaralar , barcha avlodlarni kamol toptirishni Begim oilaning kattasi sifatida ado etadi. Xuddiki onalochindek ularni ko‘z qorachig‘idek

asrashlikni o'zining sulolaviy burchi deb biladi. Shu o'rinda biz Begimni ona lochiga qiyos etamiz. Asarda ona lochin haqidagi hikoyaning qisqacha syujeti shunday: "tog'da bir ona lochin yashardi ,u har yili pana joyga tuxum qo'yib jo'ja ochar yedi. Lochin ov qilgani ketganda ilonlar kelib,uning tuxumlarini yeyishibdiyu,o'rniga o'zlarining tuxumlarini qo'yib ketishibdi.Ona lochin mehr bilan tuxumlarni parvarishlabdi.Vaqt soati yetib tuxumlar teshilibdi,ichidan ilonbachchalar o'rmalab chiqibdi,bundan daxshatga tushgan ona lochin chinqirib ,uyasidan ko'klarga uchib,o'zini qoyalarga urib faryod qilibdi.Uning faryodidan tog'lar larzaga kelibdi. Mana shunday lochinning qismati ayanchli bo'libdi". Gavharshodbegim shu ona lochinning timsolidir.

U ham nevaralari yomonliklarini ko'rib faryod chekadi.Begim har on ,har daqiqa farzandlariga mehr ulashishga,ularga nisbatan adolatli bo'lishga harakat qildi va buni uddasidan chiqdi desak yanglishmagan bo'lamiz. Mana shunday ulkan mas'uliyatni Gavharshodbegimga Shohruh Mirzo topshirgan.

Bu borada Amir Temurning Bibixonimga qarata:"Avlodlarimni lochinday yuksakka parvoz yetadigan qilib tarbiyalang",- deb aytgan xitoblarini Saroy Mulk xonimdan so'ng Gavharshod begim ado yetadi. Shu sababli ham asar shunday sarlavha bilan nomlangan. Asarda Begim Shohruh Mirzo tomonidan shunchalik e'zozlanganki,begimga atab qasrlar barpo yetilgan.

Birgina Oydinbog'-Bog'i Safed fikrimizning dalilidir Nafaqat Shohruh Mirzo tomonidan, balki buyuk sarkarda Amir Temur ham yuksak hurmat bilan munosabat bildirgan. Gavharshodbegimga kelinlik to'yonasi sifatida tilla isirg'a ham in'om yetadi.Ushbu isirg'a xonadonni yangi a'zosi yekanliklaridan dalolat beradi.



Asar mobaynida begim juda ko‘p o‘ylar iskanjasida qoladi .Nevaralari Abdullatif va Allaudavla murosasiz to‘qnashuvlari ,Amir Temurning Xitoyga yurishi chog‘idagi Begimning iztiroblari yozuvchi tomonidan katta mahorat bilan tasvirlangan.Asilda Shohruh Mirzodek podshohning malikasi bo‘lish ,Ulug‘bekdek olimning onasi bo‘lish tashqaridan qaraganda Begim uchun baxt va saodat keltirganday tuyulsa ham unday emasdi.Mana shunday shohona hayotning ichida ham yechimi yo‘q ziddiyatlar,to‘qnashuvlar shu qadar ko‘p yediki, Gavharshodbegim har biri uchun o‘zini qalqon qilib turishga harakat qilardi.Begimdagi mana shunday hislatlarni biz zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi Jannat xola,Umri xola,Saodat aya va Nayman onaga qiyos yetishimiz mumkin.Aynan mo‘tabar onalik hissi mana shu munis o‘zbek ayollarida mujassam.

Nayman ona-chi? U ham farzand dog'ida yongan ona yemasmi?.Shu jihatdan Gavharshodbegim ham o'g'lini sog'inchida ozorlanmadimi? O'g'lidan yiroqda diydoriga tashna bo'lmadimi? Begimning mana shunday ozorli sog'inch azobini suyukli o'g'li Ulug'bekka yozgan maktubida ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, asarda Ulug'bekning rafiqasi Husn Nigor xonimning obrazi ham yorqin tasvirlab berilgan.U ona sifatida o'g'lini yaxshi fazilatli,otasiga mehrli,vafodor qilib voyaga yetkiza olmaganligi uchun o'zini gunohkor deb biladi .O'g'lining padarkush bo'lib katta gunohkor bo'lganligini uqtirmoqchi bo'ladi. Lekin noqobil o'g'il

onasining so'zini olmaydi natijada tubanlik botqog'iga yana ham chuqurroq botib boradi.O'g'lining qiyofasida otasi Xalil Sultonni ko'radi.Xalil Sulton ham ko'plab janglarda necha ming insonlarni boshini kesgan va bu ishidan faxrlangan.O'g'li ham xuddi bobosiga



o'xshagan yedi.Bu holatdan Husn Nigor xonimning qalbida o'g'liga nisbatan qo'rquv paydo bo'ladi .Bu qanchalar ayanchli.Onaning iztiroblari qanchalik kuchli.Lekin u shunday holatda ham onalik mehrini beradi. Ha, onalar shunaqa farzandlariga doimo jonkuyar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,ushbu asarda yozuvchi ayol obrazini ,uning xarakter va ruhiy holatlarini, qalblarda kechayotgan kechinmalarini to'la qonli ifodalay olgan. Asarda ayol xoh singil xoh opa xoh ona barisi ulug'langan. Asarda Nayman onaga qiyoslangan

Gavharshodbegim ham Temuriylar saltanatining ustunlaridan, jonkuyarlaridan biri yekanligi aks yetgan.

Biz ularning xarakter va holatlarini portetlari orqali ham bilib olishimiz mumkin. Ayol talqini butun jahon adabiyotining bosh mavzusi bo'lib kelgan.

Mavlono Jaloliddin Rumiylar aytgan ekan: "Agar o'lsam, meni aslo qaro tufroqdan axtarmang, Yasharman ahli orif ko'nglini mangu makon aylab". Shunga monand, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov va O'tkir Hoshimovning ham asarlari asrlar o'tsa-da o'zbek xalqining ma'naviy mulki bo'lib qoladi.

«Ona lochin vidosi»

Qahramonning ona lochin deb atalishi bejiz emas. Kitobni o'qish jarayonida uning temuriylar saltanatida yorqin iz qoldirgan, ma'naviy dunyosi boy, aql-zakovatda zamonning eng peshqadam ayollaridan biri bo'lganiga ishonch hosil qilamiz. Zarur chog'larda qattiqqo'l, lekin vujudi ipakdek mayin va mehribon Gavharshodbegimning temuriyzodalarni tarbiyalash, navqiron iste'dodlarni kashf etish, ularni mehr-muruvvat bilan onalarcha parvarishlash singari fazilatlarini, ayniqsa, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy bilan bo'lgan munosabatlarida yorqin gavdalantiriladi. «Ona lochin vidosi» Gavharshodbegim obrazi badiiy adabiyotda bu qadar keng va atroflicha gavdalantirilgan dastlabki asardir.

Asar muhokamasi uchun taxminiy savollar

1. **Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi "** romani nimaga **"Ona lochin vidosi "** deb nomlangan, ona lochin kim?
2. Adib romanda Mirzo Ulug'bek obrazini xalqparvar, yurtparvar, sulhparvar arbob sifatida talqin qilgan, asardagi shu lavhalardan bir misol keliring?
3. Romanda Abdulatif obrazi mavjud. Shu obraz haqida gapirib bering?
4. Romanning badiiy va tarbiyaviy ahamiyati haqida so'zlab bering?
6. Romanda tarixiy shaxslar obrazi qanday aks ettirilgan?

Kutubxonalarda o‘tkazish mumkin bo‘lgan tadbirlar turkumi

1. **Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi "** romanihaqida kitobxon fikri.
2. "Pirimqul Qodirovning adabiy ilmiy merosi".
3. **"Ona lochin vidosi "** romani yuzasidan.
4. "O‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi" kabi mavzularda
"Ulkan qalb egasi" mavzusida kitob ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Mavzuli kecha

1. "Tarixshunos adib",
2. **"Ona lochin vidosi "** asari avlodlar shajarasi.
3. "Asardagi Ayol obrazlari haqida" kabi mavzularda

Bilimdonlar bellashuvi

1. "Adibning boshqa tarixiy asarlarini bilasizmi?"
2. "Adib hayoti faoliyatini bilasizmi?"

Davra suxbati.

1. **"Ona lochin vidosi "** romani xalqparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarining ulug‘lanishi".
2. **Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi "** romancing eng kulminatsion nuqtasi.
3. "O‘z xalqi, o‘z millati tarixining badiiy manzarasini tasvirlab bergan adib".
4. **"Pirimqul Qodirov ulkan tarixchi va adabiyotshunos olim"** kabi mavzularda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Qodirov Primkul.

Ona lochin vidosi: Tarixiy roman. – T.: “Sharq”, 2021. 240 b.

2. P.Qodirov,. Ona lochin vidosi: Tarixiy roman. - «Yangi asr avlodi» nashriyoti, - 2022, 272 b.

3. <https://aroblar.uz/uz/people/kadyrov-pirimkul>

QAYDLAR UCHUN

This image shows a full page of blank, lined paper. It features approximately 28 horizontal black lines spaced evenly across the page, typical of standard notebook paper. The lines are thin and extend from the left edge to the right edge. There is no handwriting or other markings on the page.

Mundarija:

1.Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi ".....	3
2.Asar muhokamasi uchun taxminiy savollar.....	10
3. Tadbirlar turkumi.....	11
4.Foydalanilgan adabiyotlar.....	12

XORAZM VILOYATI XONQA TUMANI
AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI

“Ona lochin vidosi”

Pirimqul Qodirov

O‘ZBEKISTON XALQ
YOZUVCHISI

Tuzuvchilar: D.Qodirova,
Muharrir: U.Egamberdiyeva.

Nashr uchun ma’sul:

Qodirova.D - Axborot-bibliografiya xizmati. Xizmat rahbari.

Adadi 10 nusxa / Ko‘chirma nusxa